

INNOVATSION MAVZUDA MATBUOT ANJUMANI



Bugun, 31 oktabr kuni Oltinsoy tuman hokimligi majlislar zalida Oltinsoy tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari O'rol Abdurasulov tomonidan "Oltinsoy innovatsion tumanida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar" mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi. Anjumanda tumanda ijod qilayotgan jurnalistlar hamda tuman hokimligi muassisligidagi "Xalq va hayot" gazetasi ijodiy jamoasi ishtirok etdi.

Dastlab matbuot anjumani ishtirokchilari Oltinsoy tumani hokimining innovatsion rivojlanish masalalari bo'yicha o'rinbosari Isroil Yusupovning tumanda 2022 yil davomida amalga oshirilgan innovatsion loyihalar haqidagi ma'ruzasini tinglashdi.

Ma'urzadan so'ng I.Yusupov "Xalq va hayot" gazetasi Bosh muharriri Normurod Temirov, gazeta bo'lim mudiri Abdug'affor Odinaev, fotojurnalist Odiljon Sodiqov, jurnalist To'ramurod Rahmonovlar tomonidan berilgan savollarga javob berdi.

Xususan, jurnalistlar yil davomida amalga oshirilgan innovatsion loyihalar haqida so'rashganida I.Yusupov quyidagicha javob berdi:

— Oltinsoy innovatsion tumanimizda ham Prezidentimizning 2021 yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 30-sonli yig'ilish bayoniga asosan umumiy qiymati 13,6 mlrd.so'mlik shundan, vazirlik hisobidan 9,6 mlrd. so'mlik 10 ta (qiymati 7,3 mlrd. so'mlik 7 ta tijoratlashtirishga tayyorlash, qiymati 1,3 mlrd. so'mlik 2 ta startap va qiymati 984 mln. so'mlik 1 ta biznes inkubator) loyihalari amalga oshirilmoqda. so'mlik 1 ta biznes inkubator) loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish natijasida bugungi kunda

115 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, bioparchalanuvchan gidrogellar, kaliforniya chuvalchangidan farmasevtika uchun zardob olish, oltingugurt asosida avtomobil yo'llari uchun yo'l bo'yoqlari va bazalt minerali asosida mexanik mustahkam kompaundlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi hamda tomchilatib sug'orish orqali 15 gektardan iborat pekan yong'og'i plantatsiyalari barpo etildi.

Bundan tashqari, startap loyihasi doirasida “Kross agidel 34” nomli oʻrdagi uchun 500 mln. soʻm mablagʻlar ajratilgan. Rossiya Federatsiyasining Boshqirdiston avtonom Respublikasidan 5000 dona tuxumlar olib kelinib, oʻrdak joʻjalari ochib chiqarildi. Hozirda oʻrdaklar tuxum qoʻyishni boshlagan va loyiha doirasida tumandagi

119 ta xonadonga 5 tadan 50 tagacha jami, 1500 ga yaqin oʻrdaklar viloyat hududiy boshqarmasi va Oltinsoy tumani hokimligi hamkorligida kooperatsiya yoʻnalishida tarqatib berildi.

Matbuot anjumanida jurnalistlar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar olishdi.

qo'shimcha <https://telegra.ph/INNOVATION-MAVZUDA-MATBUOT-ANJUMANI-10-31>